

DOLZARB MASALALAR MUHOKAMADA



Qo'shtepa tumanidagi otinoyilarning navbatdagi haftalik ma'naviyat soatlari bo'lib o'tdi. Unda tuman hokimining maslahatchisi M.Mo'ydinova ham ishtirok etdi.

Tadbirda asosiy e'tibor xotin-qizlar qalbida shukronalik tuyg'ularini yanada kuchaytirish, hayotni boricha qabul qilib undan rozi bo'lib yashash kabi muhim masalalarga qaratildi. Ayollarni kiyinish va muomala madaniyatini tartibga solishda otinoyilar oldida turgan vazifalar hakida tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz mustaqilligining 30 yilligi bayrami oldidan, qolaversa, bugunning dolzarb vazifalari yuzasidan o'zaro fikir almashildi. Shuningdek, bu borada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar belgilab olindi.

Qo'shtepa tumani hokimligi

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#)

2021-08-22 14:04:25